

## YANGI O‘ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKALARI O‘RTASIDAGI QO‘SHMA KORXONALAR FAOLIYATI

*Tashqo‘lova Dilnoza Turaboy qizi*  
*Aniq va Ijtimoiy Fanlar Universiteti*  
*Tarix yo‘nalishi 2- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** So‘ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosiy hamda iqtisodiy hayotning turli jabhalaridagi islohotlar nafaqat vatanimiz tarixida balki mamlakatimizning xalqaro maydondagi munosabatlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar xalqaro xuquq normalari hamda o‘z milliy manfaatlarimizga asoslangan holda faol, ochiq va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy hayotidagi qisqa, o‘rta hamda uzoq muddatlarga mo‘ljallangan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatiga ham ta’sir qilib mamlakatimizning o‘zga davlatlar ayniqsa iqtisodiy jihatdan dunyo tan olgan hamda dunyoning rivojlanib borayotgan mamlakatlari bilan hamkorligidagi aloqalariga ijobiy ta’sir etmoqda.

**Kalit so‘zlar:** hamkorlik, strategik sheriklik, islohot, investitsiya, diplomatik munosabat, eksport, import, qo‘shma korxonalar, tashqi savdo, iqtisodiyot

### ACTIVITIES OF JOINT VENTURES BETWEEN THE NEW UZBEKISTAN AND PEOPLE'S REPUBLICS OF CHINA

**Abstract:** In recent years, reforms in various aspects of social political and economic life carried out in our country have become important not only in the history of our homeland, but also in the relations of our country in the international arena. These reforms carried out in our republic carry out an active, open and constructive foreign policy based on international norms of the IOC and our own national interests. From this point of view, large-scale reforms in the political, social and economic life of our country for the short-term and long-term also affect the foreign political activity of our country, positively affecting the relations of our country in cooperation with other countries, especially economically recognized by the world and developing countries of the world.

**Keywords:** cooperation, strategic partnership, reform, investment, diplomatic relations, Export, import, joint venture, foreign trade, economy

### ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОВМЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕЖДУ НОВЫМ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКОЙ

#### Аннотация

Проводимые в последние годы реформы в различных сферах социально-политической и экономической жизни страны приобретают важное значение не только в истории нашей Родины, но и в отношениях нашей страны на международной арене. Эти реформы, проводимые в нашей республике, ведут активную, открытую и конструктивную внешнюю политику, основанную на

нормах международного права и наших национальных интересах. С этой точки зрения широкомасштабные реформы политической, социальной и экономической жизни страны, нацеленные как на краткосрочную, так и на долгосрочную перспективу, оказывают положительное влияние как на внешнеполитическую деятельность страны, так и на ее связи с другими странами, особенно экономически признанными в мире, так и на сотрудничество с развивающимися странами мира.

**Ключевые слова:** сотрудничество, стратегическое партнерство, реформы, инвестиции, дипломатические отношения, экспорт, импорт, совместное предприятие, внешняя торговля, экономика

### **Kirish**

So‘ngi yillarda mamlakatimizning dunyoning turli mamlakatlari bilan ayniqsa, Xitoy Xalq Respublikasi bilan munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. So‘ngi yillardagi oliy darajadagi uchrashuvlar va davlat rahbarlari o‘rtasidagi muntazam muloqotlar tufayli ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari kengayib o‘zaro munosabatlar har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimiz milliy manfaatlariga, ijtimoiy –iqtisodiy hayotiga hamda, xalqaro maydondagi nufuzining oshib borishiga xizmat qilayotgan ushbu munosabatlar Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov boshlab bergan o‘zaro do‘stlik, mustahkam ishonchga asoslangan hamkorlik negizida rivojlanib bormoqda.

O‘zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini 2005-yilda imzolangan Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma, 2010-yildagi Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish va rivojlantirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya, 2012-yildagi Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2013-yildagi Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2014-2018-yillarga mo‘ljallangan Strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dasturi hamda 2016-yilda imzolangan Qo‘shma bayonot tashkil qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston – Xitoy hamkorligini rivojlantirish doirasida ijtimoiy hayotning turli sohalarda ko‘plab yirik loyihalar amalga oshirilyapti. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda Xitoy Xalq Respublikasining turli korxonalar va tashkilotlari bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar tashkil etilmoqda va samarali faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda Xitoy O‘zbekiston iqtisodiyotiga eng ko‘p investitsiya kiritayotgan mamlakatlardan biridir. Xitoy Xalq Respublikasi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish, xalqaro maydonda hamda ichki bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish hamda sanoatning eksport salohiyatini yuksaltirishda faol ishtirok etmoqda.

Ikki mamlakat hamkorligi natijasida mamlakatimizda tashkil etilayotgan korxonalarining asosiy yo‘nalishlarini: neft-gaz, farmasevtika, to‘qimachilik, kimyo sanoati, qurilish, transport, kommunikatsiya sohalari tashkil etmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Ikki mamlakat oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari Xitoy Xalq Respublikasining Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olganligi hamda 1992-yil 2-yanvardan boshlab esa diplomatik munosabatlar oʻrnatilganligidan boshlangan.

Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlari ijtimoiy siyosiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan boʻlib, har tomonlama strategik ahamiyatga ega. Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi Respublikamiz iqtisodiyotiga eng koʻp investitsiya kiritayotgan mamlakatlardan hisoblanadi.

Soʻnggi besh yillikda mamlakatlarimiz oʻrtasida oʻzaro savdo hajmi ikki barobar, qoʻshma korxonalar soni esa uch barobar oshgan. Xitoydan Oʻzbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi esa qariyb 14 milliard dollarni takshil etmoqda, 2023-yilda tovar ayirboshlash 50 foizga oshib, 14 milliard dollarga yetdi.

Respublikamizda 2020-yil boshida Xitoy Xalq Respublikasi kiritgan investitsiya ishtirokida 1652 ta qoʻshma korxonalar faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 531 tasi 2019-yilda tashkil etilgan. Shuningdek, 100% Xitoy kapitaliga ega 120 dan ortiq korxonalar ham faoliyat yuritmoqda. Tashkil etilgan qoʻshma korxonalar soni boʻyicha Xitoy 2020-yil holatiga koʻra Rossiyadan keyin ikkinchi oʻrinda turadi. 2018-yilda esa Oʻzbek Xitoy qoʻshma korxonalar soni 351 ta tashkil etgan edi.

#### **Muhokama**

2023-yilning 19-may kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga davlat tashrifi doirasida Xitoylik ishbiarmon soha vakillari bilan uchrashuvlari boʻlib oʻtdi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Prezidentimiz rahnamoligida chet el investitsiyalarini jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash orqali import oʻrnini bosuvchi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilayotgan alohida eʼtibor oʻzining yuksak samarasini bermoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning 2023-yilning 18-may kuni Pekinda boʻlib oʻtgan uchrashuvi yakunlari boʻyicha 41 ta hamkorlik hujjatlari, jumladan, multimodal logistika markazini tashkil etish hamda “Oʻzbekiston temir yoʻllari” lokomotivlari parkini yangilash va modernizatsiya qilish toʻgʻrisidagi bitimlar imzolangan.

Jumladan, energetika, kimyo, metallurgiya, geologiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, qurilish va boshqa tarmoqlarda umumiy qiymati 25 milliard dollardan ziyod boʻlgan yangi yuqori texnologik sanoat, savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Bugungi kunda Qoraqalpogʻiston Respublikasining Chimboy, Kegeyli, Taxiatoch Shumanay, Qonlikoʻl tumanlarida Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda 7 ta qoʻshma korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda. 2017-yilda Xitoyning Jinsheng Group korporatsiyasi Qashqadaryo viloyatida yuqori texnologiyali toʻqimachilik majmuasi, ishlab chiqarish quvvati 15,0 ming tonna aralash kalava va 10 mln kv metr mato boʻlgan qoʻshma korxonaga 100 mln dollardan ortiq sarmoya kiritgan.


Xitoy xususiy kompaniyalari tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqish katta ekanligini tashkil etilayotgan korxonalar soni ham tasdiqlashi

mumkin. Masalan, 2020-yil yanvar oyida “O‘zavtosanoat” AK, Xitoyning Sinotruk va MAN Truk & Bus SE o‘rtasida mavjud JV MAN Auto-Uzbekistan QK negizida Uz Truk & Bus Motors qo‘shma korxonasini tashkil etish to‘g‘risida shartnoma imzolangan.

### Natijalar

Respublikamizning barcha hududlarida Xitoy kapitali istirokida korxonalar mavjud bo‘lib, ularning eng ko‘p tashkil etilgan hududlar bo‘yicha soni quyidagichadir: Toshkent shahrida 775 ta, Toshkent viloyatida 306 ta, Samarqandda 88 tani tashkil etmoqda. Ushbu tashkil etilgan korxonalar viloyatdagi xorijiy korxonalar umumiy sonining eng ko‘p ulushini Jizzax viloyati 35,6%, Sirdaryo viloyati 30,5% va Toshkent viloyati 27,3% ni tashkil etmoqda.

Statistika agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra hududlar bo‘yicha chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan korxonalar soni bo‘yicha 2019-yilgi ko‘rsatkichlari quyidagicha:



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-19-may kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi ham ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbari XXR Davlat kengashi Bosh vaziri o‘rinbosari Xe Lifen hamrohligida Sian shahrida o‘tgan O‘zbekiston-Xitoy hamkorligi ko‘rgazmasida ishtirok etdi.

Uchrashuv doirasida Sian shahri hamda Toshkent, Jizzax, Sirdaryo va Samarqand viloyatlari o‘rtasidagi teleko‘prik orqali yangi qo‘shma loyihalarni tantanali ishga tushirish marosimi bo‘lib o‘tgan.

Davlat rahbarimiz Shavkat Mirziyoyev Sian shahrida ramziy tugmani bosib, jami 3,3 milliard dollarlik 15 ta loyihani - avtomobil va elektromobillar, qurilish materiallari, metallardan keng turdagi mahsulotlar, tibbiy buyumlar ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirdi va yangi korxonalar qurilishiga start berdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda bugungi kunda Xitoy sarmoyasi ishtirokida 1,7 mingdan ortiq korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ushbu korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarini qamrab olgan, xususan, energetika neft-gaz, kimyo, tog‘-kon, to‘qimachilik va boshqa tarmoqlarda qator yirik qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat mamlakatimiz iqtisodiy hayotini yaxshi tarafga o‘zgartirishga baki yurtimizdagi ko‘plab ishsiz fuqarolarni ish bilan ta‘minlash imkoniyatini ham yaratib bermoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” (Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar).-
2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati”
3. Yuldashev A.S. Основные показатели и потенциал торгово-экономического сотрудничества между Узбекистаном и Китаем// *Sharq mash’ali* 14(1), 136-144 b.
4. Plova O‘zbekiston va Xitoy Sarmoyaviy va iqtisodiy hamkorlik darslik 191-bet
5. Davlat statistika agentligi axborot xizmati
6. O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi
7. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
8. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
9. [www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz)